



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2 294,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-martga oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,1 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2022 yil yanvar-mart


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 7,2 % ga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 1,8 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 3,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2022-yil yanvar-mart

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	4 020,2	4 131,2	111,0
Sharof Rashidov tumani	2 101,1	5 428,3	3 327,2
Zomin tumani	2 168,0	2 321,5	153,5
Jizzax shahri	990,2	5 350,2	4 360,0
Zafarobod tumani	2 144,7	2 517,5	372,8

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida viloyat jami hajmidagi eng yuqori fizik hajmi o‘shishining Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 143,2 % ni Zomin tumani 59,4 % va G‘allaorol tumani 57,0 % ni tashkil etdi.

239,3 %


45,8 %

2021- yil

2022- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-mart oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2158,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,1 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-mart

90,3 %

2022-yil yanvar-mart

94,1 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2021-yilning yanvar-mart oylarida – 1,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 30,0 % (8,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,5 % (16,2 %) va quyi texnologiyalisi – 47,5 % (64,7 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 29,7 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 58,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,3 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 33,1 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,8 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,7 % (2021- yilning yanvar –mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 134,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	19 013,2	10 430,0	-8 583,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	15 846,0	16 743,9	897,9
Paxta chigiti, t.	29 853,0	16 479,0	-13 374,0
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	1482,1	1548,0	65,9
Paxta linti, t.	1915,2	709,0	-1 206,2
Trikotaj polotnolar, t.	916,0	440,0	-476,0

2022- yilning yanvar-mart oylar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 16,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (5,7 % oshgan), 10,4 ming tonna paxta tolasi (45,1 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 1,5 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (46,6 % ga) yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

105,7 %


Paxta tolasi, t.

54,9 %

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 57,7 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,3 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 104,4 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 30,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,1 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 271,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 5,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 245,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 50,6 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 82,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 98,9 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 19,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 674,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 %, fizik hajm indeksi 102,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 84,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 65,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 1089,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 24,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi 114,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 83,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 31,0 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 53,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 60,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 90,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,8 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	59 280,5	63 816,2	4 535,7
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	12,0	3,3	-8,7
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	26 554,0	26 476,5	-77,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-mart	2022-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	10 971,6	17 351,9	6 380,3
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5 328,6	5 865,5	536,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 52,7 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 17,5 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1107,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 195,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 48,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-mart

27,8%

2022-yil
yanvar-mart

18,5%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-mart

72,2%

2022-yil
yanvar-mart



81,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 18,5 % (2021- yil yanvar-mart oylarida 27,8 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 33,6 % ni va Paxtakor tumani 19,4 % ni, Do'stlik tumani 10,4 % ni hamda Zarbdor tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (142,4 %), Sharof Rashidov tumanida (167,1 %) hamda Paxtakor tumanida (223,6 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 20,2 % shuningdek, G'allaorol tumani 45,1 %, ni, hamda Paxtakor tumani 8,0 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 17,2 % shuningdek, G'allaorol tumani 54,5 %, Arnasoy tumani 6,6 % ni tashkil etdi.

274,5 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-mart

411,8 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-mart

902,8 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 33,6 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 10,4 % ni, Paxtakor tumani esa 19,4 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 29,0 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 26,7 % ni, Do'stlik tumani esa 9,5 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2020- yil

1090,7 mlrd. so'm

2021- yil

1480,4 mlrd. so'm

2022- yil

2294,2 mlrd. so'm



2020- yil

107,3 %

2021- yil

116,1 %

2022- yil

104,7 %

Jizzax viloyati

104,7

2294,2

Jizzax shahar

109,9

665,6

Arnasoy

96,1

70,5

Baxmal

101,3

19,7

G'allaorol

206,4

613,4

Sharof Rashidov

100,8

107,5

Do'stlik

104,7

218,9

Zomin

98,7

66,4

Zarbdor

110,1

75,2

Zafarobod

140,3

210,3

Mirzacho'l

103,5

38,4

Paxtakor

103,1

130,6

Forish

110,8

56,1

Yangiobod

83,0


21,6

FHI, % da

mlrd. so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (3 548,4 ming so'm), Zafarobod (4 066,3 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (3 417,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 585,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1249,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54,5 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 765,6 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 1 195,4 ming so'mni, Arnasoy tumanida – 1 403,1 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 2 783,7 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3784 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1137 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,0 % i) Jizzax shahriga, 683 tasi (18,0 %) Sharof Rashidov tumaniga, 385 tasi (10,1 %) G'allaorol tumaniga, 289 tasi (7,6 %) Zomin tumaniga va 194 tasi (5,1 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil
151 dona

2021- yil
264 dona

2022- yil
255 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil
2 900 dona

2021- yil
3 521 dona

2022- yil
3 784 dona

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 71 ta loyiha bo'yicha 1122,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 8803,3 ming. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-mart oylarida 572 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 161,6 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.